

TRANSFORMATSION MODELLAR XUSUSIDA

O.S.Eshboyeva,

SamDCHTI o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada transformatsiyaning kelib chiqishi va shakllanishi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, applikativ va transformatsion modellar va ularning tilshunoslikdagi o'rnini haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: transformatsion model, transforma, applikator, transformatsion metod.

Tilshunoslikda transformatsiya deb tilga xos tub, markaziy qurilmani til qonun-qoidalari asosida o'zgartirib, ikkilamchi qurilma hosil qilish usuliga aytiladi¹.

Transformatsiya tushunchasi dastavval tilshunoslik tarixida amerikalik olimlar tomonidan o'tgan asrning 50-yillarida o'rganila boshlangan bo'lib, ushbu tushunchaning keng iste'molga kirishiga deskriptiv tilshunoslikning vakili va asoschisi Leonard Blumfildning "Til" nomli asarida keltirilgan strukturalizmning shakllanishiga asos bo'lgan g'oyalar sabab bo'lgan deyish mumkin. L.Blumfild garchi transformatsion metod haqida alohida tadqiqotlar olib bormagan bo'lsa ham, yuqoridagi asarida transformatsiya termini haqida fikr yuritganligini guvohi bo'lamiz. Transformatsiya tushunchasi strukturalistlar tomonidan tom ma'noda sintaktik strukturalarga nisbatan qo'llanilgan edi va bugungi kunda ham mazkur tushuncha, asosan, gapning sintaktik strukturasi tahlilida samarali qo'llanilmoqda. Fikrimiz dalili sifatida quyidagi nufuzli manba "Lingvistik entsiklopedik lug'at"da berilgan transformatsion metod ta'rifini keltiraylik: "Transformatsion metod – bu nisbatan kichik strukturalardan katta strukturalarni hosil qilishga asoslangan gapning sintaktik shaklini vujudga keltiruvchi metod sanaladi". Bu jarayonda muayyan sintaktik qurilma zahirida hosil vujudga keladi. Ammo transformatsiyaning shartiga ko'ra, hosil strukturaning ma'no ifodasi oldingi qurilmaning mazmuni bilan mushtarak

¹ Mamatqulov S. O'zbek tilida predikativ sintagmaning transformatsiyasi, T., Universitet. 1998

bo'lmog'i kerak. Tilshunoslikka oid adabiyotlarda applikativ model o'zining yuqori bosqichida transformasiya bilan bog'lanishi xususida ma'lumot berilgan bo'lsa-da, mazkur modelning qay tarzda transformatsiyaga munosabat bildirishi konkret til materiali vositasida ko'rsatib berilmagan. Bunda ko'proq genotipik abstrakt til materialida dalillar keltirilganligini ko'rish mumkin. Ayrim bu boradagi ishlarda esa transformalar komponentlarining applikativ model asosida shakllanishi qayd etiladi. Masalan, S.K.Shaumyan va P.A.Sobolevalarning "АППЛИКАТИВНАЯ ПОРОЖДАЮЩАЯ МОДЕЛ И ИСЧИСЛЕНИЕ ТРАНСФОРМАЦИЙ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ" asarida bu xususda quyidagilar til materialining tahlili uchun asos qilib olingan: **Bola qo'shiq aytadi.** Berilgan gapning transformalari. 1). Qo'shiqchi bola edi 2). Qo'shiqchi bola 3). Qo'shiq aytadigan bola 4). Bola tomonidan kuylangan qo'shiq. Gap strukturasi berilgan misolda invariant asosli bo'lib, uning ma'nosi bilan mushtarak ma'nolar transformalarda shakllanayotgani va har bir transformada muayyan turkumlarga oid so'zlarning applikativ bog'lanishda ekanligi ta'kidlanadi. Bundan tashqari, mazkur usul orqali faqat muayyan transformasiya shaklining sintaktik kengayishini dalillay olamiz. Transformalarni qiyos qilganimizda ham applikativ model bilan transformatsion modelning kesishishi haqida deyarli hech qanday ma'lumot bera olmaymiz. Y.D.Apresyanda ham applikativ model bilan transformatsiya o'rtasidagi bog'liqlik yuqorida ko'rib o'tilgan S.K.Shaumyan va P.A.Sobolevalarning ishlarida berilganidan qariyb farqlanmaydi. Quyida Y.D.Apresyan bergan misolni keltiramiz:

– **Yozuvchi kitobni tugatmoqda.**

– Yozuvchi tomonidan yakunlangan kitob

–Yozuvchining kitobini yakunlashi.

Yuqoridagi misollarda odatdagi transformasiya berilayotganini ko'ramiz. Boshqacha aytganda, ayni paytda ham applikativ modeldan transformatsiyaga ko'chish yoki mazkur ikki modelning o'zaro kesishishiga oid ma'lumot olib bo'lmaydi. To'g'ri, har bir transformaning sintaktik shakllanishi o'ziga xos morfologik vositalar – applikatorlar yordamida voqelanmoqda. Biroq har bir applikatorning sintaktik vazifasi faqat bir gap sathida ko'zga tashlanadi. Bu orqali, albatta, applikativ va transformatsion modellarning bir – biri bilan kesishishini

ko'rsatib bo'lmaydi. Ravshanki, transformatsion jarayon kognitiv – pragmatik vositalar, shuningdek, distributiv muhit bilan ham bevosita bog'liqdir. Yuqorida tahlil uchun keltirilgan misollarda esa bunday omillarga murojaat etilmagan. Vaholanki, mazkur omillar har ikki modelning o'zaro munosabatini ko'rsatib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Buning boisi shundaki, gap sintaktik shaklining applikativ model, shuningdek, transformatsion model doirasida o'zgarishi tabiiy tarzda eng avval ichki tilshunoslik qonun – qoidalariga, ikkinchi navbatda esa tashqi tilshunoslik tamoyillariga bo'ysunadi. Buni jumla tarkibiga yangidan kiritiladigan morfemalardan boshlab, gap shaklining sinonimik struktura bilan almashtirilishigacha bo'lgan har qanday o'zgarishda ko'rish mumkin. Masalan, muayyan morfemaning biror so'z tarkibiga kiritilishi distributiv qonuniyatga bo'ysunadi. Xuddi shu kabi, muayyan so'zning gap tarkibiga kiritilishi ham semantik yohud sintaktik distributsiya qoidalari doirasida bo'ladi. Aynan shunday vaziyatni gap bilan ikkinchi gapning munosabat bog'lashida ham kuzatamiz. Kognitiv-pragmatik omillar ham avval semantik, keyin esa sintaktik munosabat doirasida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, ayni paytda tilning antroposentrik xususiyati, aniqrog'i, tilning amalda qo'llanilishi applikativ va transformatsion modellarning har ikkisi uchun ham ahamiyatlidir. Bunday vaziyat, o'z navbatida, kognitiv – pragmatik omillar ta'sirini oshirish uchun xizmat qiladi, zotan, tilning amalda qay tarzda qo'llanilishi birinchi galda inson omili, uning bilimlari darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Darhaqiqat, inson omili, garchi u til sistemasining ichida yashamasa – da, tilning amalda qo'llanilishini boshqaruvchi asosiy vositadir. Shu bois pragmatik vositalarning ham eng asosiysini inson tashkil etadi. Bu o'rinda, kasbidan, bilim darajasidan qat'iy nazar, muayyan tilda so'zlashuvchi barcha kishilar nazarda tutiladi. O'z ona tilida so'zlashuvchi kishilarning nutqida, hatto matn shakllanishida, tabiiyki, fonemalar, morfema va so'zlar, shuningdek, gaplarning qo'llanilishida muayyan qonun – qoidalar amal qiladi. Inson o'z ona tilida so'zlashish jarayonida gapning sintaktik shaklini istalgancha kengaytirishi yoki toraytirishi mumkin. Bunga uning kognitiv salohiyati yo'l qo'yadi, zotan, tilimizning o'zi kognitiv vosita sifatida belgilar majmuasini tashkil etadi. Ta'kidlash joizki, applikativ modelni gap sintaktik shaklining kengayishidan tashqari,

matn sintaktik salohiyatining kengayishini o'rganishda ham qo'llash mumkin. Ammo endi applikator vazifasida keluvchi morfologik vosita morfema emas, balki mustaqil yoki yordamchi so'z, shuningdek, alohida bir jumla bo'lishi ham mumkin. Chunki matnning sintaktik salmog'i kengayishi ana shu vositalar bilan bog'liq bo'ladi. Endi esa applikativ modelning transformatsion model bilan kesishishi masalasiga nisbatan o'zgacharoq yondashishga to'g'ri keladi. Chunki transformatsiya ma'no mushtarakligiga asoslansa, applikativ model bunga bo'ysunmaydi. Shuning uchun muayyan gapning transformatsion xususiyat-larini tadqiq etishda ayni paytda applikativ model o'ziga xos bo'lgan usul tarzida faollik ko'rsatadi. Ma'lumki, transformatsion nazariya amerikalik olimlar tomonidan iste'molga kiritilgan edi. Bunga Z.Xarris, N.Xomskiy kabi tilshunoslarning tadqiqot ishlari asos bo'ldi. Ular transformatsiya deganda, muayyan berilgan gapning mazmunini saqlagan holda boshqa hosila strukturalarni shakllantirishni nazarda tutadilar. Z.Xarrisning ta'kidlashiga ko'ra, transformatsiya qilinayotgan gap bilan uning transformalari (hosilalari) o'rtasida leksik mushtaraklik bo'lmog'i lozim. Bundan tashqari, olim asosiy gap bilan transformalar mazmuniy jihatdan bir xil bo'lishi lozimligini ham qayd etadi[4,3]. Biroq shunday bo'lishiga qaramay, ayrim istisnolarga tayangan holda, tasdiq va so'roq gaplarni ham transformalar sifatida o'rganish mumkinligini ta'kidlaydi. Ushbu mulohazalarni davom ettirar ekanmiz N.Turniyozov quyidagilarni qayd etadi: "... transformatsiya hodisasi tavsifini berishda tadqiqotchilarga muammo tug'diradigan narsa ma'no masalasidir. Transformatsion model haqida so'z yuritilganda shunga ham ahamiyat berish kerakki, transformatsiyaning barcha turlari bir – birini almashtira oladi, desak xatoga yo'l qo'ygan bo'lamiz. Yuqorida berilgan misollarda konversiya va nominalizatsiya, shuningdek, kontaminatsiya deb ataluvchi transformasiya turlari bir – birini qisman almashtira olishini ko'rdik. Biroq buni doimiy imkoniyat deb bilmaslik lozim. Chunki ba'zi derivatsion muhitda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan transformalar almashinuvi ayrim holatlarda imkoniyatsiz bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, applikativ modelning transformatsion model bilan kesishishi jarayonida gapning sintaktik modelini hamda uning komponentlarining sintaktik pozitsiyalarini to'g'ri belgilay olish lozim bo'ladi, zero,

sinonimik ma'no'li transformalar shakllanishida bu o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqacha aytganda, transformatsiya qilinayotgan material komponentlarining, xususan, mazkur jarayonga tushgan gaplarning qaysi biri unga ergashib kelishi masalasi talqini har doim jiddiy e'tibor talab qiladi. Chunki bu jarayonda transformatsiya qilinayotgan gaplarning ba'zilari o'z lingvistik maqomini o'zgartirishi ham mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Апресян Ю.Д. Идеи и методы современной структурной лингвистики. – М., 1966. – С. 231.
2. Turniyozov N., Turniyozov B., Turniyozova Sh. O'zbek tili derivation sintaksisi. – Toshkent, 2011.
3. Turniyozov N. Xorijiy mamlakatlar Lingvistik nazariyalari. Samarqand – 2007. 59-bet.
4. Bo'ronov J.B. Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasi. – Toshkent, 1973, 50.
5. Xayrullayev, X. Z., & Esanov, S. (2022). TALABALARNING INGLIZ TILI TARIXINI O'RGANISHDA LINGVOKULTURAL KOMPETENSIYALARING RIVOJLANISHI. Eurasian Journal of Academic Research, 2(5), 566-571.
6. Zayniyevich, K. K. (2022). SYNTACTIC DERIVATION AND ITS LINGUISTIC DESCRIPTION. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(1), 700-704.
7. Хайруллаев Хуршидjon Зайниевич, & Курбонова Рахима Абдуллаевна (2022). ПРОПОЗИТИВ СТРУКТУРА БИЛАН БОҒЛИҚ АЙРИМ МАСАЛАЛАРГА ОИД. Science and innovation, 1 (JSSR), 208-216. doi: 10.5281/zenodo.7315683
8. Narbekova, E., & Khayrullayev, K. (2021). Predicativity and intonation as the main grammatical features of the sentence. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(4), 633-638.

9. Хайруллаев, Х. З. (2021). САТҲ ТУШУНЧАСИ ВА УНИНГ ЛИНГВИСТИК ТАБИАТИ. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ЯЗЫКА, ОБРАЗОВАНИЯ, ПЕРЕВОДА, 4(2).

10. Хайруллаев, Х. З. (2019). ПОНЯТИЕ " ЯРУС" И СОСТОЯНИЕ ЕГО ИЗУЧЕННОСТИ В ЯЗЫКОЗНАНИИ. In Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития (pp. 227-229).

11. Турниязов, Б. Н. (2021). ФАКТИВЛИК АСОСИДАГИ КАУЗАТСИҲА. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 4(1-1).

12. Turniyazov, B., & Saidova, S. (2020, December). ACTIVITY IN CAUCASUS. In Конференции.